

Uzbekistan Airways Mayamidagi World of Travel, Trade & Taste 2023 ko'rgazmasida



Uzbekistan Airways 31-may – 2-iyun kunlari AQShning Mayami shahrida bo'lib o'tgan "World of Travel, Trade & Taste Exhibition -2023" xalqaro sayyohlik ko'rgazmasida

ishtirok etdi. Ko'rgazma Shimoliy Amerika bozorida aviakompaniya xizmatlari va O'zbekistonning sayyohlik salohiyatini ilgari surish uchun professional platforma hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, Uzbekistan Airways Markaziy Osiyo mintaqasi va MDH davlatlari orasida ushbu tadbirda ishtirok etgan birinchi aviakompaniya bo'ldi.



Ko'rgazma davomida Uzbekistan Airways xodimlari mahalliy kompaniyalar vakillari bilan Markaziy Osiyodan AQSh va butun dunyo bo'ylab qulay aloqa va muntazam reyslarni amalga oshirish masalalari bo'yicha qator uchrashuvlar hamda muzokaralar olib bordi. Tadbir doirasida mehmonlar va tashrif buyurganlarga o'zbek palovi tarqatildi, bu esa, shubhasiz, milliy oshxonamiz go'zalligini namoyish etib, butun o'zbek gastronomik madaniyatiga yana bir bor e'tibor qaratilishiga turtki bo'ldi.

Eslatib o'tamiz, Uzbekistan Airways Toshkent – Nyu-York – Toshkent yo'nalishi bo'yicha haftasiga to'rt marta, seshanba, payshanba, juma va yakshanba kunlari muntazam parvozlarni amalga oshiradi.